

NAVOIY ASARLARIGA BAG'ISHLANGAN LUG'AT MANBALARINING
O'RGANILISHI**Sultonova Matluba Abdusamad qizi***Alisher Navoiy nomidagi Tosh DO'TAU**1-bosqich magistranti***Manzar Abdulxayrov***Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori*

Annotatsiya: *Navoiy asarlarini o'ranish, ularni tadqiq qilish va shunga o'xshash sa'y harakatlar bugungacha ham davom etib kelmoqda. Navoiy asarlarini tilini o'rganish har bir ilm ahli, o'qirman uchun tushunarli va sodda bo'lishi uchun Navoiy yashab o'tgan davrdan keyin bir qancha manbalar, xususan, lug'atlar ham tuzilgan. Maqolada Navoiy asarlariga bag'islangan lug'at manbalarining o'rganilishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *izohli lug'at, lug'at, Navoiy asarlari tili, qo'lyozma nusxalar, matn, lug'at manbalar*

Abstract: *The collection of Navoi's works, their research and similar endeavors continue to this day. In order to make learning the language of Navoi's works understandable and simple for every scholar and reader, a number of sources, especially dictionaries, were compiled after the period of Navoi's life. The article talks about the study of dictionary sources dedicated to Navoi's works.*

Key words: *annotated dictionary, dictionary, language of Navoi's works, manuscript copies, text, dictionary sources*

Navoiyning ilmiy merosini o'rganish va uni tadqiq qilish yo'lidagi sa'y-harakatlarga urg'u berilishi mustaqillikka erishganimizdan so'ng emas balki, tariximizdan boshlangan. Biz Navoiy asarlariga bag'islangan lug'at manbalarining eng qadimiylari sifatida "Badoyi al-lug'at", "Abushqa" izohli lug'ati, Tole Imoni Hiraviyning "Badoye ul-lug'at", Muhammad rizo Xoksoning "Muntaxab ul – lug'at", Mirzo Mahdiyxonning "Sangloh", "Lug'ati atrokiya", Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma", Sulaymon Buxoriyning "Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy" (Chig'atoycha – turkcha lug'at), Is'hoqxon Ibratning "Lug'ati sitta as-sina" (Olti tilli lug'at), shu jumladan, yuqorida keltirilgan lug'atlarga tayangan holda nashr etilgan E. Fozilovning 4 jildli "Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati" kabi lug'atlarni kiritish mumkin.

"Abushqa" - chig'atoycha – turkcha izohli lug'at. Alisher Navoiy asarlaridan foydalanuvchilar uchun XVI asrda Turkiyada tuzilgan. Bugunga qadar izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, asar muallifi haligacha noma'lum hisoblanadi. Ba'zi olimlar Abushqaning muallifi Aloiy ibn Muhibbiy deyishadi. Bu qarashning xato ekanligini H.Fattohov asoslab bergan. Abushqa so'ziga izoh bilan boshlanganligi uchun, lug'at shu so'z bilan nomlana boshlangan. Abushqa yuzaga keltirishda Hirotlik Tole' Imoniy

tomonidan XV asrda Navoiy asarlariga tuzilgan o‘zbekcha - forsha “Badoye ul – lug‘at” dan keng foydalanilgan.

Hozirgi kunda “Abushqa”ning Sovet Ittifoqi fondlaridagi ma’lum nusxalari 8taga yetdi. Ularning 5tasi Leningrad, 3tasi O‘zbekiston Fanlar Akdemiyasi, Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Bu lug‘atni birinchi bo‘lib qisqartirilgan holda Vamberi va undan so‘ng V. Velyaminov Zernov esa to‘liq matnni farnsuz tilida kirish so‘zi bilan Sankt-Peterburgda 1869- yili nashr qildi. Lug‘atning keng tarqalgan nomi uning ichiga kirgan so‘zlarning birinchisi, ya’ni “Abushqa”dan olingan. Lug‘atni shu so‘z bilan atash Yevropada boshlangani haqida “Abushqa”ning noshiri V. Velyaminov Zernov xabar beradi, lekin uning o‘zi lug‘atga “al – lug‘at an – navoiyya va – 1 – istish – hodot al – chig‘otoiyya” deb ataladi. Chunki nashrga jalb qilingan bir qo‘lyozmaning kotibi uni shu nom bilan atagan.

“Abushqa” o‘z ichiga 2054 so‘z va so‘z formalarini qamrab olgan. Bu so‘zlar boshlanish harflariga ko‘ra 21 bobga ajratilgan. Boblar o‘z ichiga kirgan so‘zlarning birinchi harfi nomi bilan , masalan, (al- harf al –alif), (al- harf al- bo) va h. z. nomlangan. Boshlanish harfi p va g bo‘lgan so‘zlar b va k boblariga kiritilgan. (Boyi arabiy)(b), “boyi ajamiy” (s), “kofī arabiy” (k) va “kofī ajamiy” (g) ishoralari bu harflarning jarangli yoki jarangsiz talaffuzini ko‘rsatadi. “ch” harfi bilan boshlanuvchi so‘zlar “j” bobida va ular uch nuqtasi bilan yozilgani uchun fonetik qaydsiz beriladi. 21 bobning har biri o‘z navbatida 3 qismga bo‘lingan. Avvalgi qismda birinchi harfi fathali, so‘ng kasrali va bobning oxirida birinchi harfi dammali so‘zlar keladi. Lug‘at haqidagi maqolalarda undagi so‘zlarning alifbe tartibida joylashgani haqida gapiriladi. Aslida “Abushqa” da bu tartib qat’iy saqlangan emas.

“Abushqa” 1862-yilda Vengr sharqshunosi G. Vamberi tomonidan vengr tilida, keyin esa rus sharqshunosi V. V. Velyaminov- Zernov tomonidan 1868-yilda nashr etilgan.

“Badoye ul – lug‘at” bizgacha yetib kelgan eng qadimiy lug‘atlardan biridir. Lug‘at Tole Haraviyning qalamiga mansub. Muallif haqida ma’lumotlar yetib kelmagan. Haraviy lug‘atni Sulton Husayn buyrug‘i bilan tuzgan. “Badoye ul – lug‘at”noshiri va tadqiqotchisi

“Badoye ul –lug‘at” noshiri va tadqiqotchisi A. K. Borovkov (1904-1962) ham ushbu lug‘at muallifi o‘z nomini kitobda aniq aytib o‘tgan bo‘lsa-da buning isboti uchun qo‘shimcha uning tabiri bilan aytganda “bilvosita dalillar” keltirib o‘tgan. Lug‘atning bizgacha yetib kelgan birgina qo‘lyozmasi Leningradda shahridagi kutubxonada saqlanmoqda. Borovkov nashr etgan lug‘at navoiyshunoslar uchun muhim qo‘llanma vazifasini bajarib keldi. Ushbu qo‘llanma Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlarning izohlari qisqa tarjimai bilan nashr qilingan yagona lug‘atdir.

Kitob uch qism- kirish, lug‘at teksti va qo‘shimchadan iborat. Kirish qofiyali saj bilan yozilgan. Lug‘at Navoiy asarlarida uchraydigan , avvalo, turkiy-mug‘ulcha so‘zlarni so‘ng esa kam miqdorda uchraydigan arabiy so‘zlarni o‘z ichiga olgan yagona, mukammal lug‘atdir. Lug‘atda so‘zlar arab alifbosi bo‘yicha tartibda keladi. Lug‘atda Lutfiy, Husayn Boyqaro she’rlaridan va Mir Haydarning “Mahzan ul – asror” asarlaridan ham misollar olingan. Lug‘at Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan bo‘lsa ham, ayrim o‘rinlarda so‘zlarning

fonetik ifodasida janubiy – turkiy tillar – usmonli turk, ozarbayjon va turkman tillariga xos xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Lug‘atda Fuzuliy she‘rlaridan ham misollar keltirilgan. Bu kotiblar tomonidan kiritilgan degan taxminlar bor. Borovkovning ham lug‘atni tarjima qilishda ba‘zi bir kamchiliklar bor. Ularni Alibek Rustamovning va E. Fozilovning “Badoyi lug‘at”ning Borovkov nashriga yozgan taqrizidan topish mumkin. Albatta, bu kabi kamchiliklar o‘zbek lug‘atshunosligiga, o‘zbek tili tarixiga juda katta salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydi. Kitobdan nafaqat navoiyshunoslar, olimlar, shoirlar, tilshunos, yozuvchilar balki o‘quvchilar va talabalar ham foydalanishi mumkin.

Mirzo Mahdiyxon umrining so‘nggi yillarini Navoiy asarlarini va turkiy tillarni o‘rganishga bag‘ishlagan. Uning bizgacha “Sangloh” nomli lug‘ati bizgacha yetib kelgan nodir, mukammal manba hisoblanadi. Ushbu kitob 1960- yildan boshlab ilmiy muomalaga kiritildi. 1960- yilda Kloson nashri uchun “Sangloh”ning bizgacha yetib kelgan Britan muzeyi va Boldlean kutubxonasining uch nusxasini olgan. Bu nashr “Sangloh” ustida turli ilmiy masalalarni tadqiq qilishda asos bo‘la oldi. “Sangloh” Navoiy asarlariga tuzilgan boshqa lug‘atlardan ancha farq qiladi. Lug‘atga kirish vazifasini o‘tovchi risola – eski o‘zbek tilining grammatikasi boshlanadi. U muqaddima, tarsif va olti asosdan tashkil topib, “Maboniy al – lug‘at” (Til asoslari) maxsus nomini olgan. “Sangloh” o‘zigacha bo‘lgan davrgacha beqiyos katta hajmli kitob hisoblanadi. U 6181 ta lug‘at maqolani o‘z ichiga oladi. Hajmi bilan boshqa lug‘at manbalardan farq qilgan. Lug‘at maqolalarining kengligi, so‘zmaqolalarining lug‘at maqolalari ichida va ularning ma‘nolarini to‘liq va namunalar berish jihatdan Navoiy asarlariga tuzilgan boshqa lug‘atlardan ustun turadi. Bu lug‘atda ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan asosiy narsa – arab va fors tilining uzoq asrlar davomida qo‘lga kiritgan yutuqlarini tatbiq qilinishini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shu paytgacha lug‘at manbaning tahlili, tadqiqi va uni o‘rganish 1960- yilda nashr etilgan Kloson nashri asossida amalgam oshirilgan. Lug‘at nashri lug‘at manbaning aynan qo‘lyozma matni emas. Ushbu lug‘at navoiyshunoslar, tilshunoslar, olimlar va umuman olganda tolibi ilmlar uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Navoiy asarlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan va bizgacha ikkita qo‘lyozma nusxasi yetib kelgan lug‘at manba, “Lug‘ati atrokiyadir”. Lug‘atning bir nusxasini A.A.Ramaskevich 1914-yilda Tehronda sotib olgan. Va qo‘lyozmaga o‘z nomini bergan. Manba hozirgacha saqlanib qolgan. Lug‘at manba asoschisi Fathali . Kitobning kirish qismida uning to‘liq ismi va biografiyasi haqida ma‘lumot berilgan.

Lug‘at to‘rt qismdan iborat:

1. Muqaddima;
2. Lug‘at;
3. “Sangloh” muallifi Mirzo Muhammad Mahdiyxon ma‘nolarini yechib bera olmagan 12 so‘z izohlari;

Bundan tashqari nazmiy asarlar, bir nechta nasriy asarlarni o‘z ichiga oladi.

Fathali Qojar eski o‘zbek tili va eron turklari tili o‘rtasidagi o‘xshashlik, o‘zgarish va farqlar haqida gapiradi. Lug‘at manba jami 28 bobdan iborat bo‘lib 7694 ta so‘zni o‘z ichiga oladi. Lug‘atda so‘zlarni alifbe tartibiga solishda aniq prinsip yo‘q. Lug‘ati atrokiyani

qolgan barcha leksikografik jihatlari “Abushqa” ga o‘xshash. “Lug‘ati atrokiya”da ham “Sangloh”kabi Navoiy asarlaridagi umumiy leksika bilan bir qatorda, geografik, kishi nomlari, etnik nomlarni va dori – darmon o‘tlarini ifodalovchi so‘zlar anchagina uchraydi. Manba lug‘at maqolalar tuzilish rejasi “Badoye al-lug‘at” va “Abushqa” dagi kabidir.

Navoiy asarlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilib kelayotgan, yuqoridagi manbalarga tayangan holda E. Fozilov ham o‘zining “Alisher Navoiy asarlari tili izohli lug‘atini tuzgan”. Ushbu lug‘at 4 tomdan iborat sanaladi. Lug‘atga Alisher Navoiy asarlarida iste‘molda bo‘lgan so‘z, frazeologik iboralar va turg‘un birikmalar kiritilgan. Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan har bir so‘z lug‘atda alohida bosh so‘z - maqola sifatida talqin qilingan. Bosh so‘zlar alifbo tartibida joylashtirilgan.

Navoiy asarlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilayotgan lug‘atlar qatoriga bir jildlik “Navoiy asarlari lug‘ati”, besh jildga mo‘ljallangan hozircha ikki jildi nashr bo‘lgan “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”, E.Fozilovning uch jildlik “Navoiy asarlari lug‘ati”ning birinchi jildi, Manzar Abdulxayrovning “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati” kabi lug‘atlarni kiritish mumkin. Bugungi kunga qadar ushbu lug‘atlar fan mutaxassislari, shoirlar, yozuvchi, o‘quvchi va talabalar uchun muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E. Fozilov “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” 1- jildi Toshkent – 1983-1985.
2. Hasanov Botirbek “Javohir xazinalari” (Alisher Navoiy asarlariga tuzilgan qo‘lyozma lug‘atlar). Toshkent – 1989.
3. Manzar Abdulxayr “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”. Toshkent - 2018.
4. Sayfiddin Rafiddinov “Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘at” ning yangi nashri haqida. Volume 4. Conference Proceedings1.2023
5. E.Fozilov. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. – T.: “Niso poligraf”, 2013